

## TURIZM XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA XALQARO HAMKORLIK

*Mavliddinov Ramzidin Raxmatulloyevich*

*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti*

*Magistratura tinglovchisi, kapitan*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada turizm tushunchasi hamda xalqaro turizm tashkilotlari haqida so‘z boradi. Shuningdek, turizm xavfsizligini ta’minlashda xalqaro hamkorlik muhokama qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** turizm, shaxsiy xavfsizlik, Butunjahon Turizm Tashkiloti, “Turizm to‘g‘risida”gi qonun, turizm xavfsizligi.

**Аннотация:** В данной статье говорится о понятии туризма и международных туристических организациях. Также будет обсуждено международное сотрудничество в обеспечении безопасности туризма.

**Ключевые слова:** туризм, личная безопасность, Всемирная туристская организация, туристическое право, безопасность туризма.

**Annotation:** This article talks about the concept of tourism and international tourism organizations. International cooperation in ensuring tourism safety will also be discussed.

**Keywords:** tourism, personal safety, World Tourism Organization, tourism law, tourism safety.

Bugungi kunda Respublikamizda turizmni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning natijasidan Respublikamizga jumladan viloyatimizga tashrif buyurayotgan turistlar soni o‘tgan yillarga nisbatan keskin oshdi. Mazkur islohotlardan ko‘zlangan maqsad esa mamlakatimizda ushbu sohani rivojlantirishdir. Joriy yilda ham hukumatimiz tomonidan mamlakatimizning turistik salohiyatini yanada rivojlantirish maqsadida bir qator hujjatlar imzolandi.

Hususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid ko‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5611 sonli Farmoni imzolandi va mazkur farmonga asosan 2019-yilning 1-fevralidan boshlab 45 ta davlat fuqarolari O‘zbekiston Respublikasi xududiga kirgan kundan e‘tiboran 30 kunlik muddatga vizasiz rejim belgilangandi edi. Shu bilan bir qatorda 2019-yilning 1-fevralidan boshlab 75 ta davlat fuqarolari elektron kirish vizasini olish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Keling, endi “turizm” tushunchasiga ta’rif berib o‘tsak. O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi Qonunida turizm tushunchasiga tarif berib o‘tilgan. Unga ko‘ra, **turizm** – jismoniy shaxsning vaqtincha bo‘lish mamlakatidagi

(joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda doimiy yashash joyidan jo‘nab ketishi (sayohat qilishi).

Dunyoning ko‘zga ko‘ringan olimlari va soha mutaxassislari tomonidan ushbu tushunchaga turlicha ta’rif va fikrlar keltirib o‘tilgan. Xususan, hozirgi zamon xorijiy ilmiy adabiyotlarida «turizm» tushunchasini aniqlashga turlicha yondoshuvlar mavjud.

1991-yil Kanada poyaxti Ottava shahrida bo‘lib o‘tgan Butunjahon turistik tashkiloti (BTT) sayohat va turizm statistikasi bo‘yicha konferensiyada “turizm” tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan: “Turizm – odatdagi muhitdan tashqarida dam olish, ishga aloqador va boshqa maqsadlarda bir yildan ko‘p bo‘lmagan davrda bo‘lgan sayohat va joylarda bo‘lishni amalga oshirgan shaxs faoliyati”.

Turizm – tarkibi turli xil o‘xshashliklardan iborat bo‘lgan mahsulot, servis, xizmat ko‘rsatuv ob‘yektlari, ishlab chiqarish birligiga ega bo‘lgan barchasi individual iste’molchiga yoki guruh iste’molchilarga vaqtinchalik, doimiy yashash joyini tark etgan va ma’lum turistik manzilda sayohat qiluvchilar tushuniladi.

Shuningdek, mamlakatimizda Turizmni rivojlantirish bilan bir qatorda xavfsiz turizmni ta’minlash sohasiga ham katta e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 23-noyabrdagi “Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlarida xavfsiz turizmni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 939-sonli qaroriga asosan Respublikamizning to‘rtta viloyatida shu jumladan Xorazm viloyati Ichki ishlar boshqarmasi negizida Xavfsiz turizmni ta’minlash boshqarmasi tashkil qilinganligi so‘zimizning isboti bo‘la oladi.

Shaxsiy xavfsizlik, so‘zsiz – muhim va qadimiy tushuncha. U har bir turist uchun ovqat, uyqu, havo, suv kabi zarur. Shuning uchun ham sayohat davomida turistning xavfsizligi turistik firma va davlat uchun bosh g‘amxo‘rliklardandir. Turistlarning xavfsizligini ta’minlashga bir qator kompleks chora-tadbirlar qaratilgan bo‘lib, ular turistik tashkilotlar va davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Bunda qabul qiluvchi mamlakatlardagi siyosiy va ekologik vaziyatga birinchi darajali ahamiyat beriladi. Bu omillarning mavjud emasligi turizmni qiyinlashtiradi. Va turistlar uchun xavfsiz emas. Bu haqida turistik kompaniya aniq axborotga ega bo‘lmasa va turistlarga kafolat berolmasa, noqulay mintaqalarga sayohatchilarning borishi keskin kamayib ketadi. Masalan, Fors ko‘rfazida bo‘lgan urush harakatlari bu mintaqaga boradigan turistlar sonini 90 foizga qisqartirib yuborgan edi. Misr, Suriya, Liviya mamlakatlari va Kavkaz mintaqasida ham shunday holat yuz berdi. Terroristik hujumdan keyin Indoneziyaning Bali oroliga boruvchilar, Chernobildagi avariya dan keyin Ukraina va Belarusga sayohat qiluvchilar keskin kamayib ketganligi ma’lum.

Darhaqiqat, turizm xavfsizligi, umuman, turizm sohasi xalqaro huquqiy hujjatlar bilan tartibga solingan sohalardan biri hisoblanadi. Bu soha bo‘yicha umumjahon miqyosida yirik bir tashkilot faoliyat ko‘rsatadi. Butunjahon turizm tashkiloti Birlashgan Millatlar Tashkilotining qo‘shimcha organi bo‘lib, uning mas’uliyatli,

barqaror va hamma uchun ochiq turizmni targ‘ib qilish va turizm xavfsizligi ta‘minlash uchun mas‘ul agentligidir. Ushbu tashkilot turizmni dunyo miqyosida keng targ‘ib qilish, uning xalqaro miqyosda huquqiy asoslarini tashkil etuvchi hujjatlar qabul qilish, turizm xavfsizligini ta‘minlash va davlatlarning ushbu qonun-qoidalarga rioya qilishini monitoring qilish kabi vazifalarni bajaradi. Bunday xalqaro normalar sirasiga Manila Jahon turizmi to‘g‘risidagi deklaratsiyasini (1980), Gaaga turizm to‘g‘risidagi deklaratsiyasi (1989), Turistlarni himoya qilish xalqaro kodeksi, Xalqaro eko-turizmni keng targ‘ib qilish to‘g‘risidagi konvensiya va shu kabi o‘nlab normalarni sanashimiz mumkin. Har bir qabul qilingan xalqaro normalar ushbu sohaning muammoli deb hisoblangan jihatlari yuzasidan, qo‘shimcha savollarga o‘rin qoldirmaslik maqsadida tuziladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Turizm bo‘yicha mas‘ul organi a‘zo davlatlari har yili sohaga doir hisobotlarini berishlari lozim. Ushbu hisobotda mamlakat turizm salohiyatidagi iqtisodiy, madaniy, moliyaviy o‘zgarishlar, sayyohlarning himoyasini va xavfsizligini ta‘minlashga oid chora-tadbirlar, xususiylar va davlat sektoridagi turistik xizmatlarni ko‘rsatish tashkilotlarining faoliyatiga oid ijobiy o‘zgarish, xizmatlar ko‘rsatishdagi erishilgan yutuqlar va boshqalar haqida atroflicha bayonotlar topshirilishi ko‘zda tutiladi.

Turistik profilda bo‘lmagan xalqaro tashkilotlar ham xalqaro turizmga xavfsizlikni ta‘minlash ishlarida faol qatnashadi. Jumladan:

- xalqaro mehnat tashkiloti (XMT, 1919 y.);
- Fuqarolik aviatsiyasi xalqaro tashkiloti (IKAO, 1944 y.);
- Havo transporti xalqaro assosiyatsiyasi (IATA, 1945 y.);
- BMT (YUNESKO, 1948);
- Xalqaro dengiz tashkiloti (IMO, 1958 y.);
- Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanis tashkiloti (OESR, 1960 y.);
- BMTning atrof-muhit dasturi (YUNEP, 1975 y.);
- Jinoyat polisiyasi xalqaro tashkiloti (INTERPOL, 1990 y.) va boshqalar.

Turizmning rivoji bilan sayyohlarning xavfsizligini ta‘minlash borgan sari muhim va zarurat masala bo‘lib qolmoqda. Hozirgi kunda turizm sohasida sayyohlarni jo‘natuvchi va qabul qilib oluvchi har bir mamlakat uchun sayyohlarning dam olish paytlarida, transport harakati yo‘nalishlarida ularning xavfsizligini ta‘minlash chora tadbirlari har bir mamlakat uchun oddiy, odatdagi hayotiy holda bo‘lmog‘i zarur.

Xalqaro kelishilmovchiliklar yoki harbiylar xatti harakatlar, xalqaro jinoyatchilik, terrorizm voqea va hodisalari xalqaro turizm oqimiga nafaqat to‘sqinlik qiladi, balki uning rivojiga juda katta zarba beradi. Bu to‘g‘rida xalqaro turizmning asosiy mamlakatning tashqi ishlar vazirligi o‘zlarining fuqarolari sayyohatga boradigan mamlakatlardagi noxush voqea va hodisalar to‘g‘risida xabardor qilib borishi lozim. Sayyohlarni sayyohatga boradigan mamlakatlardagi noxush voqea va hodisalar to‘g‘risida xabardor qilib borishi lozim. Sayyohlar sayyohatga boradigan

korxonalarining sanitariya- gigiyenik holati, shu jumladan ichimlik suvi to‘g‘risida ob‘yektiv ma‘lumotlarini, yuqumlik infeksiyon kasalliklar kelib chiqishi xavf-xatari to‘g‘risidagi zurruriy ma‘lumotlar bilan oldindan xabardor bo‘lishi kerak.

Turizm rivojlanishining butun tarixiy taraqqiyotida sayyohatchilar xavfsizligi muhim masalalardan biri bo‘lib kelgan. BTT ma‘lumotlariga ko‘ra xalqaro turizm, ishtirok etgan sayyohlarning 2/3 qismi kriminal holatlar turizm rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi eng muhim omillardan deb hisoblaganlar. Mahalliy aholi o‘rtasida odam o‘ldirish, zo‘rovonlik, bosqinchlik, voqea va hodisalar odatda oddiy bir kundalik holat deb qaraladigan bo‘lsa, maboda mana shunday hodisalar xorijiy turistlar o‘rtasida uchraydigan bo‘lsa, u holda noxush xabarlar matbuot sahifalarida tezkorlik bilan tarqatiladi.

Turizm faoliyati sohasida, birinchi navbatda, BMTning Jahon turizm tashkiloti, turizm sohasidagi nufuzli xalqaro va milliy tashkilotlar, shuningdek, xorijiy kompaniyalar bilan xalqaro hamkorlikni kengaytirish, turistik faoliyat amaliyotiga xalqaro va davlatlararo standartlar va normalarni joriy etish yuzasidan:

- xalqaro turizm tashkilotlari, chet davlatlarning vakolatli organlari, shuningdek, turizm sohasidagi xorijiy kompaniyalari bilan xalqaro hamkorlik, o‘zaro samarali harakat qilish mexanizmlarini rivojlantirish va takomillashtirish sohasida takliflarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

- belgilangan tartibda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jahon turizm tashkiloti (YUNVTO) va boshqa xalqaro tashkilotlarda O‘zbekiston Respublikasining manfaatlarini ifoda etadi va turizm masalalari bo‘yicha o‘zaro hamkorlik qiladi, turizm sohasini tartibga soluvchi universal xalqaro konvensiyalar va shartnomalarda O‘zbekiston ishtirokini ta‘minlaydi;

- YUNVTO hujjatlari qoidalarining ijrosi monitoringini tashkil etadi, belgilangan tartibda tegishli axborotlarni tayyorlaydi;

- turizmni rivojlantirishga yo‘naltirilgan chet el donorlari va kredit tashkilotlari mablag‘larining belgilangan tartibda jalb qilinishi va undan foydalanilishini tashkil etadi;

- har yili Toshkent shahrida Toshkent xalqaro turistik yarmarkasi o‘tkazilishini ta‘minlaydi;

- xorijiy mamlakatlarda o‘tkaziladigan xalqaro turizm yarmarkalari, ko‘rgazmalari va biznes-uchrashuvlarda mamlakatning turizm sohasi sub‘yektlari ishtirokini tashkil etish bo‘yicha tayyorgarlik chora-tadbirlarini muvofiqlashtiradi, shuningdek, xalqaro turizm tashkilotlari, xorijiy davlatlarning vakolatli organlari va xorijiy kompaniyalar bilan o‘zaro hamkorlikda xalqaro turizm tadbirlarini o‘tkazadi va ularda ishtirok etadi.

Turizm xavfsizlik muammosi hozirgi sharoitda turizm sanoatini rivojlantirishning muhim shartlaridan biriga aylanmoqda. Keyingi yillarda yuz bergan

Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida hamda Afg‘onistondagi mojarolar, 2008-yilda boshlangan global pandemiya tufayli kelib chiqqan inqiroz, 2022-yil 24-fevraldan Rossiya Federatsiyasining Ukrainada olib borayotgan maxsus operatsiyasi jahon turizmiga jiddiy salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Vaqti-vaqti bilan turli mamlakatlarda uchrab turadigan terroristik xurujlar, tajovuzkorliklar, ekologiyaning yomonlashuvi xavfsiz turizm imkoniyatlarini jiddiy cheklamoqda, kishilarni xalqaro sayohatlardan tiymoqda.

Turistik xavfsizlik darajasini yanada yaxshilash uchun BMT Bosh Assambleyasi, Butunjahon Turizm Tashkiloti va Butunjahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti xavfsiz turizmni tashkil qilish bo‘yicha tavsiyalarga qat‘iy rioya qilish lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 18.07.2019 yildagi O‘RQ-549-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 25.08.2022 yildagi O‘zbekiston Respublikasi turizm va madaniy meros vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida 475-son qarori
3. Mirzayev M.A., Aliyeva M.T. Turizm asoslari. O‘quv qo‘llanma.-T.: O‘zbekiston faylafuslar jamiyati, 2011.297 b.
4. Tuxliyev I.S., Quدراتov G‘.H., Pardayev M.Q. Turizmni rejalashtirish.
5. Ilmiy maqola, To‘xliyev Nurislom: “Turizmda xavfsizlikning ayrim tamoyillari va xususiyatlari”.

#### **ELEKTRON MANBALAR:**

1. <https://lex.uz>